

Date: 7<sup>th</sup> April-2026

DISFUNKSIONAL OILADAGI MUNOSABATLARNING O'SMIRLARNING  
DIVIANT XULQ-ATVORGA TA'SIRINING PSIXOLOGIK SABABLARI

Yuldashov Nosir G'anijonovich

Osiyo Xalqaro universiteti Pedagogika va Psixologiya fakulteti 2- kurs magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada delinkvent va deviant xulq-atvor tushunchalarining mohiyati, ularning shakllanishiga ta'sir etuvchi biologik, psixologik va ijtimoiy omillar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Ayniqsa, o'smirlar orasida uchraydigan me'yordan og'ish xatti-harakatlarining asosiy sabablari, ularning shakllanishi va ijtimoiy oqibatlari yoritiladi. Shuningdek, profilaktika va reabilitatsiya choralarining ahamiyati ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** deviant xulq-atvor, delinkvent xatti-harakat, o'smirlar, psixologik og'ish, ijtimoiy nazorat, profilaktika.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются сущность понятий девиантного и делинквентного поведения, а также биологические, психологические и социальные факторы, влияющие на их формирование. Особое внимание уделяется причинам отклоняющегося поведения среди подростков, а также его последствиям и значению профилактических и реабилитационных мер.

**Ключевые слова:** девиантное поведение, делинквентное поведение, подростки, психологическое отклонение, социальный контроль, профилактика.

**Annotation:** This article explores the essence of deviant and delinquent behavior, analyzing the biological, psychological, and social factors that influence their development. Particular attention is given to the causes of behavioral deviations among adolescents, the consequences of such behaviors, and the significance of preventive and rehabilitative measures.

**Keywords:** deviant behavior, delinquent actions, adolescents, psychological deviation, social control, prevention.

Deviant xulq-atvor — bu jamiyat tomonidan umume'tirof etilgan axloqiy, huquqiy va madaniy me'yorlarga zid tarzda sodir etiladigan, mavjud ijtimoiy tartibga qarama-qarshi bo'lgan xatti-harakatlar tizimidir. Bunday harakatlar ijtimoiy normalarning buzilishi, odat, urf-odat va qadriyatlarining inkori, jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy mezonlarning chetlab o'tilishi bilan tavsiflanadi. Ayniqsa, o'quvchilar orasida deviant xatti-harakatlar holatlari bugungi kunda tobora ko'proq uchrayib turibdi va deyarli har bir ta'lim muassasasida bu hodisaga duch kelish mumkin. Mazkur holatning keng tarqalishi nafaqat ta'lim sohasi vakillarini, balki sotsiologlar, psixologlar, shifokorlar, huquq-tartibot organlari xodimlari va boshqa mutaxassislarni ham jiddiy tashvishga solmoqda. Chunki deviant xulq-atvor shaxsning nafaqat o'ziga, balki unga yaqin bo'lgan ijtimoiy guruh va jamiyatning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu muammoning ildizida o'quvchilarning tashqi dunyo bilan, ijtimoiy muhit bilan, shuningdek, o'z "men"i bilan o'zaro munosabatlaridagi murakkabliklar yotadi. Shu bois, deviant xulq-atvorning asosiy tushunchalari, unga oid nazariy yondashuvlar va ularni tavsiflovchi ilmiy konsepsiyalarni



Date: 7<sup>th</sup> April-2026

chuqur tahlil qilish dolzarb masalaga aylangan. Deviatziyaning mohiyatini anglash, uning shakllanishiga sabab bo'luvchi ichki va tashqi omillarni, ya'ni "katalizator"larni aniqlash, bu holatga samarali yondashuvni ishlab chiqishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Deviant xatti-harakatlarning ta'rifi va izohi fanlararo yondashuvni talab qiladi. Har bir fan mazkur hodisani o'z predmetiga xos mezonlar asosida tushuntiradi. Masalan, sotsiologiya deviant xulq-atvorni jamiyatdagi sotsial nazorat tizimining yetarlicha faol emasligi yoki sotsial muvozanatning buzilishi natijasi sifatida talqin etsa, psixologiya bu holatni shaxsning ichki psixologik ziddiyatlari, affektiv holatlari yoki noadekvat ijtimoiy moslashuvi bilan bog'laydi. Falsafa esa deviant xulq-atvorni yanada chuqurroq, mavjudlik va hayotiy maqsadlar nuqtai nazaridan yoritadi. Falsafiy yondashuvda inson xulq-atvori erkinlik, ong va tanlov bilan bog'liq holda qaraladi. Insonning jamiyatdagi harakatlari va qarorlariga u yashayotgan muhit, uning axloqiy me'yorlar to'plami, hayot mazmuni va qadriyatlar tizimi asosiy ta'sir ko'rsatadi. Xulq-atvorni erkinlik kategoriyasi bilan bog'lash, deviant harakatlar sabablarini insonning o'z tanlovi va ijtimoiy mas'uliyatni qanday qabul qilishi bilan tushuntirishga xizmat qiladi. Psixologik yondashuvda deviant xulq-atvorning kelib chiqish sabablari, avvalo, shaxs psixikasining individual xususiyatlari bilan bog'liq holda izohlanadi. Psixologiya bu holatni insonning ichki dunyosi, uning ehtiyojlari, hissiyotlari, intellektual va emotsional faoliyati, idrok va xarakter xususiyatlari, shuningdek, ong va ongsizlik darajasidagi kechinmalari asosida tushuntiradi. Har bir shaxs o'ziga xos tajriba, dunyoqarash va xatti-harakatlar modeli bilan farqlanadi, shuning uchun deviant xatti-harakatlar psixologik nuqtai nazardan shaxsning o'z ichki muammolariga bergan javobi sifatida talqin qilinadi.

Psixologiyaning asosiy e'tibor markazida inson xatti-harakatlarining asosiy motivlari va ularni yuzaga keltiruvchi ichki psixologik mexanizmlarni tushunish yotadi. Har bir insonning dunyoni idrok etishi, emotsional reaksiya berishi va o'zini tutishi, uning ongli yoki ongsiz ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'ladi. Bu ehtiyojlar o'z vaqtida va mos shaklda qondirilmagan taqdirda, deviant (ya'ni, og'ishgan) xulq-atvor shakllanishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda deviant xulq-atvorning shakllanishi haqida ikki asosiy nazariy yondashuv mavjud: **biologik (yoki tabiiy-biologik) yondashuv** va **ijtimoiy-reduksion yondashuv**.

**Tabiiy-biologik nazariyalarga** ko'ra, deviant xatti-harakatlar inson organizmining biologik xususiyatlari bilan bog'liq. Ushbu yondashuv tarafdorlari genetik me'ros, markaziy asab tizimidagi buzilishlar, gormonlar va bioximik jarayonlarning nomutanosibligi, neyrofiziologik disfunktsiyalar kabi omillarni asosiy sabab sifatida ko'rsatadilar. Ularning fikricha, ayrim shaxslar tug'ma biologik predispozitsiyaga ega bo'lib, bu holat ularni normal xulqdan og'ishish ehtimolini oshiradi. Bunga qarama-qarshi bo'lgan **ijtimoiy-reduksion nazariyalar** esa deviant xatti-harakatlarning manbasini ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy muhitda izlaydi. Bu yondashuv tarafdorlari shaxsning ichki psixologik holatini ikkinchi darajali deb hisoblab, asosan, ijtimoiy tengsizlik, yetarli ta'lim va tarbiyaning yo'qligi, oilaviy muammolar, atrof-muhitdagi bosim va adolatsizlikni asosiy sabab sifatida ko'rsatadilar.



Date: 7<sup>th</sup> April-2026



Venger psixologi F. Pataki tomonidan ilgari surilgan yondashuv esa kompleks yondashuvga asoslanib, deviant xatti-harakatlarning yuzaga kelishini bir qator o‘zaro bog‘liq omillar — tarixiy, makrosotsiologik, ijtimoiy-psixologik hamda individual-shaxsiy darajadagi omillar birikmasi sifatida talqin etadi. Patakining fikricha, inson xatti-harakatlarini faqatgina bitta omil bilan tushuntirish noto‘g‘ri bo‘lib, bu murakkab hodisani to‘liq tushunish uchun turli darajadagi omillarni tahlil qilish lozim. Shunday qilib, deviant xulq-atvorning shakllanishi murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, bu hodisaga ham tashqi (ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy) omillar, hamda ichki (psixologik, biologik) omillar birgalikda ta‘sir ko‘rsatadi. Ushbu omillarni to‘g‘ri tahlil qilish va ularning o‘zaro bog‘liqligini chuqur anglash orqali deviant xatti-harakatlarning oldini olish va korreksiya qilish strategiyalarini ishlab chiqish mumkin.

Zamonaviy ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘smirlar orasida deviant xulq-atvor holatlarining ortib borishi, avvalo, oilaviy muammolarning chuqurlashuvi, ijtimoiy nazoratning susayishi va ta‘lim muassasalarining tarbiyaviy salohiyati bilan bog‘liq. Tadqiqotlar o‘smirlar tomonidan sodir etilayotgan noqonuniy yoki normalardan og‘ishgan xatti-harakatlar bilan oilaviy muhitdagi inqirozli holatlar o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, o‘smirlik davrida kuzatiladigan deviant holatlarning sabablari, ularni bartaraf etishga qaratilgan samarali vositalar va pedagogik-psixologik yondashuvlarni aniqlash tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shuni ta‘kidlash joizki, hatto eng rivojlangan, yuqori darajada sivilizatsiyalashgan va ijtimoiy boshqaruvi mukammal tizimlarga ega jamiyatlarda ham barcha fuqarolarning ijtimoiy me‘yor va qoidalarga to‘liq rioya qilishi amalda imkonsizdir. Har qanday jamiyatda muayyan darajadagi normalardan chekinish, ya‘ni deviant xatti-harakatlar mavjud bo‘lib, ular doimiy tarzda ijtimoiy tartibni sinovdan o‘tkazadi. Bu holat jamiyatni o‘z me‘yorlarini takomillashtirishga, axloqiy va huquqiy chegaralarni qayta ko‘rib chiqishga undaydi.

Deviant xulq-atvorning sabablari ko‘p hollarda murakkab, ko‘p omilli va ziddiyatli bo‘lib, ularni aniqlashda turli fanlar o‘z yondashuvlarini taklif etadilar. Psixologik yondashuvda ushbu holatlar nevrozlar, psixozlar, emotsional nomutanosiblik, identifikatsiya muammolari kabi ichki psixik buzilishlar bilan izohlanadi. Sotsiologik yondashuv esa deviant xatti-harakatlarni sotsial guruhlar va jamiyat tuzilmasi o‘rtasidagi nomuvofiqlik, madaniy normalar va qadriyatlarining inkori bilan bog‘laydi.

Fransuz sotsiologi E. Dyurkgeym deviant xulq-atvorni ijtimoiy normalar va qadriyatlarining zaiflashuvi yoki anomik holati bilan tushuntiradi. Uning fikricha, jamiyatda umumiy axloqiy mezonlarning izdan chiqishi, fuqarolarning o‘z hayot yo‘nalishini aniq belgilay olmasligi, deviant harakatlarning kuchayishiga olib keladi. Amerikalik sotsiolog R. Merton esa bu hodisani sotsial-madaniy maqsadlar bilan ularga erishishning ijtimoiy jihatdan maqbul vositalari o‘rtasidagi tafovut natijasi sifatida talqin etadi. Unga ko‘ra, agar jamiyat muayyan yutuqlarga erishishni targ‘ib qilsa-yu, shu yutuqlarga qonuniy yo‘l bilan erishish imkonini bermasa, insonlar deviant yoki hatto kriminal yo‘llarni tanlashi mumkin. O‘smirlar bilan olib boriladigan profilaktik va korreksion ishlar, bir tomondan, ularning psixologik holatini tahlil qilish, ijtimoiy

Date: 7<sup>th</sup> April-2026



moslashuvini ta'minlash, boshqa tomondan esa, oilaviy tarbiya, maktab muhiti va ijtimoiy institutlar bilan o'zaro hamkorlikda olib borilishi lozim. Ushbu yondashuvlar ichida individual maslahatlar, guruhviy treninglar, rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, ijtimoiy psixologik diagnostika kabi zamonaviy usullar samarali natija beradi. Deviant xulq-atvorning shakllanishi va namoyon bo'lishi jarayonini chuqur tahlil qilish, unga olib keluvchi sabablar, motivlar, holatlar va xatti-harakatlar majmuasini aniqlash beqiyos ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Bu omillarni to'liq o'rganish orqali deviant harakatlarning oldini olish, ularni kamaytirish va ularni bartaraf etish bo'yicha aniq, maqsadli strategiyalar ishlab chiqish imkoniyati paydo bo'ladi. Ayniqsa, o'smir yoshidagi shaxslarning hayotidagi salbiy vaziyatlar, ijtimoiy yetakchilikning yo'qolishi yoki shakllanmaganligi, yo'naltirilmagan ijtimoiy orientatsiya va rivojlanmagan ijobiy qadriyatlar tizimi ushbu xatti-harakatlar uchun qulay psixologik va ijtimoiy zamin yaratadi.

Rasmiy statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, o'smirlar orasida deviant xulq-atvor holatlari kattalarga nisbatan ikki baravar tez sur'atda ortib bormoqda. Bu holat nafaqat shaxsiy, balki makrotizim darajasidagi muammolarga ham ishora qiladi. Ijtimoiy beqarorlik, axloqiy-me'yoriy qadriyatlar zaifligi, oilaviy inqiroz va ta'lim-tarbiya tizimidagi bo'shliqlar bunga misol bo'la oladi. Ilmiy adabiyotlarda deviant xulq-atvor, delinkventlik va jinoiy xatti-harakatlar alohida ijtimoiy deviasiya shakllari sifatida ajratib ko'rsatiladi. Deviant xulq-atvor, avvalo, mikroijtimoiy munosabatlar – ya'ni oila, maktab, tengdoshlar guruhlari kabi kichik ijtimoiy muhitlarda qabul qilingan axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalarining buzilishi bilan tavsiflanadi. Bu xatti-harakatlar ijtimoiy me'yordan og'ish sifatida qaraladi va ko'pincha intizomsizlik, norozilik, norasmiy guruhlar ta'siriga tushib qolish yoki ijtimoiy izolyatsiya natijasi sifatida yuzaga chiqadi.

Deviant xulq-atvorning eng yorqin ko'rinishlariga quyidagilarni misol keltirish mumkin: ataylab namoyishkorona harakatlar (masalan, o'zini o'zgachalarcha tutish, jamoat tartibiga zid chiqishlar), tajovuzkorlik (agressiya), maktabdagi intizomni buzish, ta'lim jarayonidan chetlashish (dars qoldirish, maktabdan qochish), daydilik, spirtli ichimliklar va giyohvand moddalarga qaramlik, g'ayriijtimoiy jinsiy xatti-harakatlar, shuningdek, o'z joniga suiqasd qilishga urinishlar. Bu holatlar jamiyatning asosiy ijtimoiy institutlari – oila, maktab, mahalla va ommaviy axborot vositalarining yetarlicha ta'sir o'tkazmasligi yoki noto'g'ri ijtimoiylashtirishning natijasidir. Ushbu deviant xatti-harakatlarning oldini olish, ularni aniqlash va korreksiyalashda kompleks yondashuv zarur bo'lib, bunda psixologik, pedagogik va sotsiologik metodlar uyg'unlashtirilgan tarzda qo'llanishi lozim. Ayniqsa, o'smirlar bilan ishlovchi pedagog-psixologlar, sinf rahbarlari, ijtimoiy pedagoglar uchun individual yondashuv, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, ijobiy o'zini anglashni shakllantirish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilishi kerak.

Delinkvent xulq-atvor deviant xulq-atvordan farqli ravishda, bolalar va o'smirlarning huquqiy normalarni buzishga yo'naltirilgan, ammo jinoyat kodeksiga muvofiq jinoiy javobgarlikni talab qilmaydigan takroriy g'ayriijtimoiy harakatlar majmuasi sifatida tavsiflanadi. Bu turdagi xatti-harakatlar, asosan, shaxsning yoshiga xos psixologik-ijtimoiy beqarorlik, axloqiy me'yorlar va qadriyatlar tizimining buzilishi, ijtimoiy nazoratning zaiflashuvi natijasida yuzaga keladi.

Date: 7<sup>th</sup> April-2026

Delinkvent xulq-atvorning quyidagi asosiy shakllari ajratib ko'rsatiladi:

1. **Agressiv xulq-atvor** – ataylab zo'rvonlik ko'rsatish, haqorat qilish, sadistik xatti-harakatlar, o't qo'yish kabi jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi harakatlar;
2. **G'arazli xulq-atvor** – kichik o'g'riliklar, ta'magirlik, avtoullovni ruxsatsiz olib qochish, moddiy manfaatdorlik asosida sodir etiladigan mulkiy jinoyatlar;
3. **Giyohvand moddalar bilan bog'liq harakatlar** – narkotik vositalarni yetishtirish, tarqatish yoki iste'mol qilish.

Delinkvent xulq-atvor nafaqat tashqi faoliyatda, balki ichki shaxsiy xususiyatlar darajasida ham namoyon bo'ladi. Bunday o'smirlar orasida axloqiy qadriyatlarning yemirilishi, ichki o'zini nazorat qilish mexanizmlarining susayishi, ijtimoiy mas'uliyat hissining pasayishi kuzatiladi. Natijada ular ijtimoiy jihatdan qabul etilgan normalar va me'yorlarni inkor etishga moyil bo'lib boradilar. Yuqoridagi xatti-harakatlardan farqli o'laroq, **jinoiy xulq-atvor** jinoyat kodeksining muayyan moddalari bilan belgilangan, yoshga to'lgan shaxslarga nisbatan jinoiy javobgarlikni talab qiladigan, ijtimoiy xavf darajasi yuqori bo'lgan g'ayrihuquqiy harakatlardir. Bunday harakatlar jinoyat sifatida baholanadi va qonuniy jazo choralarini qo'llashni nazarda tutadi.

**Deviatsiyaning salbiy shakllari**, ya'ni ijtimoiy patologiya deb yuritiluvchi holatlar, jamiyatda keng ijtimoiy-iqtisodiy va axloqiy oqibatlariga olib keluvchi holatlardir. Ular tarkibiga spirtli ichimliklarga ruju qo'yish (araqxo'rlik), toksikomaniya, giyohvandlik, fohishabozlik, o'z joniga qasd qilish, huquqbuzarlik va jinoyatchilik kiradi. Ushbu xatti-harakatlar jamiyatning asosiy tayanch tizimlariga putur yetkazadi, ijtimoiy barqarorlikni izdan chiqaradi va yangi avlod tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Voyaga yetmaganlar orasida deviant va delinkvent xulq-atvorning shakllanishi turli xil omillar bilan izohlanadi. Ushbu omillarni quyidagicha guruhlariga ajratish mumkin:

**1. Biologik omillar.** Bola organizmida mavjud bo'lgan fiziologik yoki anatomik xususiyatlar uning ijtimoiy adaptatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bular:

- irsiy omillar (genetik moyilliklar);
- aqliy rivojlanishning sustligi, eshitish yoki ko'rishdagi nuqsonlar;
- asab tizimi faoliyatining buzilishi;
- organizmga psixofiziologik zo'riqishlar, kimyoviy muhitning zararli ta'siri;
- turli somatik, allergik yoki toksik kasalliklar bilan bog'liq zaifliklar.

**2. Psixologik omillar.** Bu guruhga bolaning psixopatologik holatlari yoki xarakterdagi aksentuatsiyalar kiradi. Bular:

- asab kasalliklari (nevroz, nevrasteniya);
- psixopatiya;
- shaxsiy rivojlanishdagi muammolar;
- stressga bardoshsizlik, g'ayriadekvat psixologik reaksiyalar.

Shu boisdan, delinkvent xulq-atvorni aniqlash, baholash va uni tuzatish jarayoni ko'p qirrali va tizimli yondashuvni talab qiladi. Har bir bolaning xatti-harakatlaridagi og'ishlar chuqur individual, psixologik, pedagogik va ijtimoiy jihatdan tahlil qilinishi kerak. Bunda psixologik-pedagogik xizmatlar, oilaviy tarbiya muhitining ijobiylashuvi, ijtimoiy rehabilitatsiya va profilaktik choralar hal qiluvchi o'rin tutadi.



Date: 7<sup>th</sup> April-2026

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. G'oziyev E. G' "Psixologiya". T. 2008 yil.
2. G'oziev E.G'. "ONTOGENEZ PSIXOLOGIYASI". NOSHIR TAXRIRI OSTIDA T. 2020 YIL.
3. Менделевич В.Д. "Психология девиантного поведения". М.:2016 yil
4. Shoumarov G', Umarov B, Akramova F. "YOSHLARDA XULQ OG'ISHI VA TARBIYA BUZILINING OLDINI OLISH BO'YICHA PSIXOLOGIK MASLAHATLAR". Toshkent.:2015 yil
5. Abdulla, S., & Abduvakilovna, K. U. (2022). AXBOROT SAVODXONLIGI VA AXBOROT IZLASH XULQ-ATVORIDAGI PSIXOLOGIK OMILLAR. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 586-589.
6. Abduvakilovna K. U. et al. O'SMIRLARDA DEVIANT XULQ-ATVOR SHAKLLANISHIGA OILAVIY NIZOLARNING TA'SIRI //Journal of new century innovations. – 2022. – T. 19. – №. 2. – С. 91-94.

